

KOREYS VA O‘ZBEK ADABIY TILINING FONETIK JIHATDAN ME‘YORLASHTIRISH JARAYONI VA UNI BELGILOVCHI MUASSASSALAR

Toshturdiyeva Shoxista Habibillo qizi,
O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti o‘qituvchisi
shoxistatoshturdiyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida koreys va o‘zbek adabiy tilning fonetik xususiyatlari qanday me‘yorlashtirilgani va o‘zbek tilidagi fonetik me‘yorlarni rasmiylashtirish bilan taqqoslab, qaysi tilda bu jarayon kuchliroq va samaraliroq ekanligini, qaysi birida esa o‘zgarishga ochiqqligini ko‘rib chiqamiz. Shuningdek, ikkala tilda bu fonetik me‘yorlarni qaysi muassasa belgilab, nazorat qilishligi haqida ham atroflicha to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: 표준어, 발음법, fonetik me‘yorlar, fonetik o‘zgarishlar.

Abstract. This study examines how the phonetic features of the Korean and Uzbek literary languages have been standardized. By comparing the formalization of phonetic norms in Uzbek with those in Korean, it evaluates which language demonstrates a stronger and more effective standardization process.

Keywords: standard language, pronunciation rules, phonetic norms, phonetic changes.

Аннотация. В данном исследовании рассматривается, каким образом нормализованы фонетические особенности корейского и узбекского литературных языков. Путём сопоставления процесса формализации фонетических норм в узбекском и корейском языках определяется, в каком языке этот процесс является более развитым и эффективным.

Ключевые слова: стандартный язык, правила произношения, фонетические нормы, фонетические изменения.

Kirish. Bir mamlakatning tili bo‘lsa ham, u hududiy, davriy, ijtimoiy va tabaqaviy jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin. Ya‘ni, talaffuz, so‘z shakli va ma‘nolarida farqlar paydo bo‘lsa, bu holat tilimizdagi muloqotga chalkashlik va noqulayliklar olib kelishi tabiiydir. Shu sababli, bir mamlakatda turli hududlarda yoki ijtimoiy tabaqalarda ishlatiladigan turli tillar o‘rniga hammaga tushunarli bo‘lgan umumiy til – standart til (ya‘ni, standart og‘zaki shakl) – sifatida belgilab foydalanish zarurati paydo bo‘ladi. Bu kabi tartibga “standart til qoidalari (표준어 규정)” deb ataladi. Bu standart til qoidalarini o‘rganishda bizga turli xil hujjat va manbalar kerak bo‘ladi. Bunda bizga birinchi navbatda fonetik me‘yorlarini o‘rganishimiz uchun 1988-yilda tasdiqlangan “Standart talaffuz qoidalari (표준 발음법)” kerak bo‘ladi. Ya‘ni bu hujjat qanday talaffuz to‘g‘ri talaffuz, qanday talaffuz xato talaffuz ekanligini belgilab beruvchi isbotdir. Standart til butun mamlakat bo‘ylab bir xil tushunilishi uchun so‘zlarning talaffuzi va yozilishi umumiy qoidalarga asoslangan.

Adabiyotlar tahlili. Koreys va o‘zbek adabiy tillarining fonetik me‘yorlarini tadqiq etishda fonetika, orfoepiya hamda til me‘yorlashtirish nazariyalariga oid ilmiy manbalar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek tilshunosligida M. Asqarova, R. Yunusov va D. Nabiyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘zbek tilining fonetik

tizimi, tovush o'zgarishlari hamda adabiy talaffuz me'yorlari keng yoritilgan. Koreys tilshunosligida esa Kim Jae-won, Kim Jin-ho va Shin Seung-yong ishlari standart talaffuz qoidalari, shevalarning adabiy tilga ta'siri va fonetik siyosat masalalarini tahlil qiladi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda koreys va o'zbek tillarining fonetik me'yorlarini qiyosiy jihatdan o'rganish yetarli darajada yoritilmagan bo'lib, mazkur maqola ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy va lingvistik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Koreys va o'zbek adabiy tillaridagi fonetik me'yorlar, talaffuz qoidalari hamda fonetik o'zgarishlar ilmiy manbalar va rasmiy me'yoriy hujjatlar asosida o'zaro taqqoslandi. Tadqiqot jarayonida fonetik hodisalarning shakllanishi, qo'llanishi va me'yorlashtirilishida mas'ul bo'lgan muassasalarning faoliyati ham lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Butun mamlakatda tushunarli so'zlar mahalliy so'zlar mavjud. Masalan, '냄비' (nembı – idish) rasmiy so'z hisoblanadi, '냄비' esa noto'g'ri deb qaraladi. Lekin, so'zlarning talaffuzi rasmiy qoidalar bo'yicha hududga qarab o'zgarishi mumkin.

Fonetik me'yorlari. Adabiy tilning fonetik qoidalari tegishli kitoblarda yetarlicha yoritilgan. Biz esa adabiy tilning fonetik xususiyatlari qanday me'yorlashtirilgani va o'zbek tilidagi fonetik me'yornı rasmiylashtirish bilan taqqoslab, qaysi tilda bu jarayon kuchliroq va samaraliroq ekanligini, qaysi birida esa o'zgarishga ochiqqligini ko'rib chiqamiz.

Koreys tilida tovushlar ikki xil unli va undosh bo'ladi. Bu tovushlarnı talaffuz qilayotganimizda esa og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i asosiy vazifa bajaradi. Koreys tilida unlılar o'zbek tilidan farqli ravishda tovush paychalarining tebranishini o'z ichiga olgan jaranglı tovushlar hisoblanib, undoshlar orasidan faqat 4tasi (ㅁ, ㄴ, ㅇ, ㄹ) jaranglı bo'lib, qolganlari jarangsiz hisoblanadi. Biz yuqorida aytganimizdek, koreys adabiy tili Seul lahjasi asosida ishlab chiqilgan. Koreyada yozma va og'zaki nutqda bir xil talaffuz me'yorlari keraklıgı aniq seziladi. Chunki har hududdagi shevalar bir-biridan juda farq qiladi. Koreys adabiy tilining fonetik me'yorlarini tuzishda asosan yozuvga yaqın talaffuz qabul qilingan, lekin xalq og'zaki nutqidagi o'zgarishlar ham inobatga olingan. Masalan, xalq adabiy tildagi so'zlarnı osonroq talaffuz qilishlari uchun talaffuzni birmuncha soddalashtirgan. O'sha soddalashtirilgan me'yornıning eng ko'zga ko'ringanlarini ko'rib chiqamiz.

1. Artikulatsiya joyini assimilyatsiya qilish mumkin: 있는데, 편리하다;

2. Unli harflar va □, ㄴ, ○, ㄹ harflaridan keyin keladigan ㅎ harfi talaffuz qilinmasligi mumkin: 일하다, 성함;

3. ㄹ harfidan keyin 예 harfini 에 harfi kabi talaffuz qilish mumkin: 레산

4. Grammatik qo‘shimchalar qo‘shilganda qisqarish 보라(보+아라), 퍼(피+어).

O‘zbek tilida adabiy til me‘yorlarini asosan 1943-yilda ishga tushgan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi belgilaydi va bu muassasa o‘z faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi. O‘zbek tilida ham adabiy tilning fonetik me‘yorlarini tartibga solish jarayonida xalq talaffuz qilishiga oson bo‘lishi uchun birmuncha soddalashtirilgan. Masalan:

1. Eliziya, Sinerezis fonetik qoidalari asosida unli harflarning tushib qolishi: bora olmoq – borolmoq, echki emar – echkemar;

2. Unlilar reduksiyasi: b(i)lan, s(i)ra;

3. Assimilyativ o‘zgarishlar: badtar – battar, shirmoy non – shirmonnon.

Koreys adabiy tili me‘yorlarida unli harflar 21ta bo‘lib, ularning hammasi tovush paychalarining ishtirokiga ko‘ra jarangli tovushlar deb qabul qilinadi. Lekin o‘zbek tilidagi unliharflarda jarangli xususiyat yo‘q. O‘zbek tilida unliharflar faqat ovozdin iborat deb olinadi. Undosh harflar ovoz va shovqindin iborat bo‘lganligi sababli ularda jarangli va jarangsizlik xususiyati bor. Koreys tili adabiy til me‘yorlarida unli harflar 3xil tasnif qilinadi:

1. Tilning ko‘tarilishigiga ko‘ra

2. Paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra

3. Labning ishtirokiga ko‘ra.

O‘zbek tilida ham unli harflar xuddi shunday tasnif qilinadi. Lekin o‘zbek tilida unli harflarning paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra tasnifida hozirgi kunda ikki xil yondashuv bor. Birinchi yondashuvga muvofiq, unliharflarning paydo bo‘lish o‘rni, to‘g‘rirog‘i, tilning gorizontil harakati e‘tirof etiladi. Ikkinchi yondashuvga muvofiq, unliharflarning paydo bo‘lish belgisi rad etiladi va shuning uchun ham bu belgiga ko‘ra unliharflarning tasnifi asossiz hisoblanadi. Koreys tili adabiy til me‘yorlarida intonatsiya (억양), ohang (음조), urg‘u (강세), temp (템포), ritm (리듬) bor. O‘zbek tili adabiy tilida ham nutq tempi, nutq balandligi, urg‘u, pauza, melodika, tembr, intonatsiya tushunchalari mavjud bo‘lib, o‘zbek tilida ohang bo‘yoqdorligi koreys tilinikiga nisbatan kuchliroq. Lekin koreys tilida tilning bu xususiyatlari adabiy tildan ko‘ra shevalar uchun ko‘proq kerak. Birinchidan ohangdorlik og‘zaki nutqqa xos bo‘lganligi uchun bu xususiyat asosan shevalarda kuchli bo‘lishi tabbiy holdir. Adabiy tilning og‘zaki nutqida so‘roq gaplarda ohang ko‘tarilib,

darak gaplarda pasayadi. Shevalarda esa oddiy soʻroq gaplar ham turli xil ohanglarda aytilishi mumkin.

Fonetik oʻzgarishlar. Har bir tilning adabiy tilida fonetik oʻzgarishlar boʻladi. Koreys tilida quyidagi fonetik oʻzgarishlar meʼyorlashtirilgan: 음 탈락 (tovush tushishi), 음 첨가 (tovush ortishi), 음 대치 (tovush almashishi). 음 탈락 ga misol qilib, 좋다 (조타), 많다 (만타), 앓다 (안타) soʻzlarini keltirishimiz mumkin. 음 첨가 uchun esa “ㄴ” 첨가 yaʼni 꽃잎 (꼇닙) soʻzini misol qilib keltira olamiz. 음 대치 ga 유음화, 비음화, 구개음화, 경음화 fonetik oʻzgarishlari misol boʻla oladi. Bunda 유음화 “ㄴ” va “ㄹ” harflari bir-biriga taʼsir qilib, “ㄹ” harfiga oʻzgarib ketadi. Masalan: 신라 -> 실라, 난리 -> 날리. 비음화 da esa “ㄱ, ㄷ, ㅂ” harflaridan keyin “ㄴ, ㄹ” harflari keladigan boʻlsa, ularning burun tovushlari boʻlmish “ㅇ, ㄴ, ㄹ” harflariga oʻzgaradi. Masalan: 작년 -> 장년, 것만 -> 건만, 밥물 -> 밤물. 구개음화 bu ㄷ, ㅌ dan soʻng unli '이', '히, 혀' kelsa, u 'ㅈ, ㅊ' tarzida talaffuz qilinadigan holatdir. Masalan: 굳이 -> 구지, 같이 -> 가치. 경음화 da undosh 'ㅎ' da oldin yoki keyin undosh 'ㄱ, ㄷ, ㅂ, ㅈ' boʻlsa, ular [ㅋ, ㅌ, ㅍ, ㅊ] deb talaffuz

qilinadi. Masalan: 축하해요 -> 추카해요. Bu fonetik oʻzgarishlarni har bir koreys tilini oʻrganuvchilar bilishadi. Bu maqolamizdan maqsad esa bu oʻzgarishlarni oʻzbek tilidagi holat bilan taqqoslash. Oʻzbek tilida ham soʻz tarkibidagi turli oʻzgarishlar, asosan, tovushlarning bir-biriga taʼsiri natijasida roʻy beradi. Tovush oʻzgarishlarining quyidagi turlari mavjud: 1. **Assimilatsiya** soʻz tarkibida yonma-yon kelgan tovushlarning bir- biriga taʼsiri natijasida oʻzaro moslashuvidir. Assimilatsiyaning 2 turi mavjud: 1) progressiv assimilatsiya. Bunda soʻz tarkibidagi oldingi tovush keyingi otdan ottan, ketdi ketti, yurak+ga yurakka, qishloq+ga>qishloqqa kabi; 2) regressiv assimilatsiya. Bunda soʻz tarkibida keyingi tovush oldingi tovushni oʻziga moslab oladi: birla> billa, tuzsiz> tussiz, atlas> allas kabi (koreys tilida esa bu 유음화 ga toʻgʻri keladi. Lekin koreys tilida ikki turga odatda boʻlinib oʻrganilmaydi). 2. **Dissimilatsiya** soʻz tarkibida kelgan oʻxshash yoki qisman oʻxshash tovushlarning nooʻxshash boʻlib qolishidir. Dissimilatsiyaning ham 2 turi mavjud: 1) progressiv dissimilatsiya. Bunda ikkita oʻxshash tovushning keyingisi nooʻxshash boʻlib qoladi: birorta> bironta, zarar> zaral kabi; 2) regressiv dissimilatsiya. Bunda ikkita oʻxshash tovushning oldingisi nooʻxshash boʻlib qoladi: uchta> ushta, maqtanmoq> maxtanmoq kabi. 3. **Metateza** soʻz tarkibida kelgan ikki undoshning oʻrin

almashuvidir: ahvol> avhol, tuproq> turpoq, hiringlamoq> hingirlamoq kabi (koreys tilida esa bunaqa holat kuzatilmaydi). 4. **Tovush almashishi.** So'zga qo'shimcha qo'shilishi bilan uning tarkibida kelgan unli tovushning ham undosh tovushning ham almashishi uchraydi:

1) unlilarning almashishi: o-a: son-sana, ong-angla, ot-atamoq; a- o: tara-taroq, sayla-saylov, qayna-qaynoq; i-u: quri-quruq, sovi-sovuq, o'qi-o'quv;

2) undoshlarning almashishi: q-g': o'roq-o'rog'i, qishloq-qishlog'i, bo'taloq-bo'talog'i; k-g: yurak-yuragi, ellik-elliginchi, bilak-bilagim; g-k: barg-barkka, tug-tukkan, eg-ekkan; g'-q: bog'-boqqa, tog'-toqqa, yig'-yiqqan kabi. Koreys tilida esa ma'lum bir harflar o'zgaradi xolos. O'zbek tilidagidek turli-tuman emas. 5. **Tovush tushishi.** So'zga turli qo'shimchalar qo'shilishi natijasida uning tarkibidagi biror unli yoki undosh tovushning tushib qolishi bilan bog'liq o'zgarish sodir bo'ladi:

1) unlilarning tushishi: i tushadi: og'iz-og'zi, bag'ir-bag'ri; a tushadi: zahar-zahri, shahar-shahri; u tushadi: burun-burni;

2) undoshlarning tushishi: n tushadi: men-mening, sen-sening; r tushadi: qars-qurs qasir-qusir; t tushadi: past-pasay, sust-susay. Koreys tilida esa asosan “ㅎ” tovushi tushadi.

6. **Tovush orttirilishi.** Bu hodisa asosan o'zlashma so'zlarning talaffuzida uchraydi: rus-o'ris, shkaf-ishkof, stakan-istakon, traktor-tiraktor, otpusk- otpuska, kiosk-kioska kabi. Koreys tilida esa “ㄴ” tovushining orttirilishini ko'rib chiqdik.

Xulosa. Yuqorida ko'rganimizdek, koreys adabiy tili me'yorlarining fonetik bo'limini ko'rib chiqayotganimizda unli harflar jarangliga kiritilganini ko'rdik. Koreys tili unlilari o'zbek tilidagi unlilaridan tubdan farq qilsada, talaffuz jihatidan bir-biriga o'xshab ketadi. Lekin o'xshasa-da o'zbek tilida unlilar jarangli hisoblanmaydi. Mana shu jihat tadqiq qilinishga muxtoj deb qarayman. Shuningdek, chet ellik koreys tilini ham o'rganuvchi va o'rgatuvchi sifatida koreys tilidagi so'zlarni talaffuz qilishda qiyinchilik yuzaga kelmasligi uchun yetarlicha soddalashtirilgan deb o'ylayman. Lekin O'zbekistonning ayrim hududlarida “i” harfi koreys tilidagi “으” harfi kabi talaffuz qilinishi ko'p uchraydi. Bu rus tilidagi “ы” ta'siri bo'lishi ham mumkin. Shu jihat ham tadqiq qilinishi kerak bo'ladi. Va yana o'zbek adabiy tilidagi fonetik o'zgarishlar koreys tilidagi fonetik o'zgarishlarga nisbatan turli-tuman va o'ziga yarasha murakkabligi borligini tahlil qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldashev, D. Muhamedov. O'zbek tili praktikumi. Toshkent. 2006.
2. D.A.Nabiyeva, H.R.Zokirova. O'zbek tili fonetikasi. Andijon. 2016.
3. 김재원. 남한 표준어 규정 정책의 변화 연구. 한국사상문화학회. 2019.
4. 김진호. 외국어로서의 한국어학개론. 배론원격평생교육원. 2010.
5. 마학봉. 사투리 연기를 위한 효과적인 운율 습득방법 연구. 예술전문사학위논문. 2012.

6. 신승용. <標準發音法> 爭點과 표준 발음 政策의 方向. 한국어문교육연구회. 2016.
7. 申昇容. “標準發音法” 爭點과 표준 발음 政策의 方向. 한국어문교육연구회. 2006.
8. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Fanlar_akademiyasi

